



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No6(4)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 116 sahifa,
12-iyun, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

- Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woogyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta’limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**



MUNDARIJA

Maktab o'quvchilarining musiqiy tafakkurini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	10
<i>Abilov Muslim Normuxammadovich</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashning pedagogik ahamiyati.....	14
<i>Bolqiyev Axmad</i>	
Jamiyat muhitida radikalizmning oldini olishga qaratilgan uzluksiz profilaktika tizimini yaratish	17
<i>Axmedova Iroda Shaxitbekovna</i>	
Inklyuziv ta'lim va gospital pedagogikani rivojlantirishda pedagogning tashkilotchilik madaniyati: nazariy va amaliy aspektlar	22
<i>Djabborov Ma'sud Bahriddinovich, Arolova Zarina Lochin qizi</i>	
Developing Sociolinguistic Competence in Intensive Teaching of Foreign Languages to Adults	28
<i>G. R. Tolibova</i>	
Языковая выразительность и художественный мир сказки "Муха-Цокотуха"	31
<i>Garifullina Alsu Robert qizi</i>	
Boshlang'ich sinflarda nasriy asarlarni o'qitish	35
<i>Ibodullayeva Madina Muzaffar qizi</i>	
Nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarda nutq faoliyatining yuzaga kelish xususiyatlari	38
<i>Ibroximova Fotimaxon Qobiljon qizi</i>	
Rezervga bo'shatilgan harbiy xizmatchilarni fuqarolik hayotiga ijtimoiy-psixologik reintegratsiyasining nazariy-metodologik tahlili (CTP dasturi misolida).....	42
<i>Ikmatullayev G'ayrat Zokirovich</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining o'quv motivatsiyasini innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida rivojlantirish yo'llari	47
<i>Islamova Fotima Shamsiddinovna, Ismoilova Mohinur Faxriddin qizi</i>	
Raqamli ta'lim muhitida milliy o'quv dasturini amaliyotga joriy etishning asosiy tamoyillari	52
<i>Mamanazar Djumayev</i>	
Turli vazn toifalaridagi dzyudochilarning texnik-taktik tayyorgarligini takomillashtirish	61
<i>I. B. Matmuratova</i>	
Maktabgacha ta'limda xalqaro monitoring va baholash dasturlarining o'rni	65
<i>Mutalova Dilnoza Abdurashidovna</i>	
Raqamli texnologiyalar orqali o'quvchilarning intellektuallik koeffitsientini rivojlantirish va zamonaviy ko'nikmalarini shakllantirish	69
<i>Normamatova Sevinch Asror qizi</i>	
Ona tilidan o'quvchilarning pragmatik kompetensiyasining rivojlanganlik darajasini aniqlash mezonlari.....	73
<i>Ollqova O'g'iljon Mamanazarovna</i>	
Oliy ta'limda adaptiv raqamli ta'lim texnologiyalari asosida o'quv jarayoni samaradorligini oshirish modeli ...	77
<i>Quchqarova Dilnovoz Shaymaxammad qizi</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetensiyalarini autentik videomateriallar asosida rivojlantirish metodikasi	81
<i>Qurbonova Shalola Ilhomiddinovna</i>	
Jadid ma'rifatparvarlari pedagogik merosini tadqiq etishning zamonaviy ijtimoiy-pedagogik ahamiyati	84
<i>Raxmatova Dilbar Anvar qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining funksional savodxonligini xalqaro baholash dasturlari asosida rivojlantirish	88
<i>Shavqiddin Burxonov</i>	
Development of Students' Artistic Taste and Aesthetic Education as a Pedagogical Problem.....	91
<i>Temirov Murodjon Anvarovich</i>	
O'smirlarda huquqiy madaniyatni shakllantirishda ma'naviy-ma'rifiy faoliyatning pedagogik imkoniyatlari...	95
<i>Umarov Qobiljon</i>	



Ta'lim va tarbiya tizimida falsafiy yondashuvning pedagogik asoslari 98 Umurov Sharif Rajabovich	98
Boshlang'ich sinf ona tili darslarida so'z turkumlariga oid mashg'ulotlar ustida ishlash 102 Voxidova Muqaddas Rasuljon qizi	102
Методические основы развития критического мышления обучающихся при изучении информационных технологий в условиях использования искусственного интеллекта 106 Панжиева Назокат Нормаматовна	106
Динамика морфологической системы современного русского языка в условиях цифровизации 111 Тураева Дилфуза Даминовна	111



BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARINING O'QUV MOTIVATSIYASINI INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH YO'LLARI

Islamova Fotima Shamsiddinovna

Xalqaro Nordik universiteti, Pedagogika kafedrasida katta o'qituvchisi

ORCID: 0009-0005-3087-4766

Ismoilova Mohinur Faxriddin qizi

Xalqaro Nordik universiteti magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining o'quv motivatsiyasini innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida rivojlantirish masalasi ilmiy-pedagogik jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqot davomida interfaol metodlar, raqamli ta'lim texnologiyalari, gamifikatsiya, multimedia vositalari va masofaviy ta'limning pedagogik imkoniyatlari o'rganildi. Shuningdek, innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan ta'lim muhitining talabalarning kasbiy kompetentligini, mustaqil fikrlashini hamda ta'limga bo'lgan qiziqishini rivojlantirishdagi ahamiyati ochib berildi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar talabalarning o'quv motivatsiyasini oshirishda samarali pedagogik vosita ekanligi aniqlandi.

Kalit so'zlar: o'quv motivatsiyasi, innovatsion pedagogik texnologiyalar, raqamli ta'lim, interfaol metodlar, gamifikatsiya, boshlang'ich ta'lim, kasbiy kompetentlik.

Abstract: This article analyzes the development of educational motivation of future primary school teachers based on innovative pedagogical technologies from a scientific and pedagogical perspective. During the research, the pedagogical possibilities of interactive methods, digital educational technologies, gamification, multimedia tools, and distance learning were studied. In addition, the importance of an educational environment organized on the basis of innovative pedagogical technologies in developing students' professional competence, independent thinking, and interest in learning was revealed. The results of the study showed that classes organized on the basis of innovative approaches are an effective pedagogical tool for increasing students' educational motivation.

Key words: educational motivation, innovative pedagogical technologies, digital education, interactive methods, gamification, primary education, professional competence.

Аннотация: В данной статье научно-педагогически анализируется проблема развития учебной мотивации будущих учителей начальных классов на основе инновационных педагогических технологий. В ходе исследования были изучены педагогические возможности интерактивных методов, цифровых образовательных технологий, геймификации, мультимедийных средств и дистанционного обучения. Кроме того, раскрыта значимость образовательной среды, организованной на основе инновационных педагогических технологий, в развитии профессиональной компетентности студентов, их самостоятельного мышления и интереса к обучению. Результаты исследования показали, что занятия, организованные на основе инновационных подходов, являются эффективным педагогическим средством повышения учебной мотивации студентов.

Ключевые слова: учебная мотивация, инновационные педагогические технологии, цифровое образование, интерактивные методы, геймификация, начальное образование, профессиональная компетентность.

KIRISH

Bugungi kunda ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, pedagog kadrlarni zamonaviy bilim va kompetensiyalar asosida tayyorlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligi va o'quv motivatsiyasini rivojlantirish dolzarb pedagogik muammolardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Chunki motivatsiyasi yuqori bo'lgan pedagog o'z faoliyatiga mas'uliyat bilan yondashadi, innovatsion faoliyatga intiladi va ta'lim jarayonini samarali tashkil eta oladi.

So'nggi yillarda ta'lim tizimiga innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish orqali o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, kreativligi va o'quv faolligini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu nuqtai nazardan, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining o'quv motivatsiyasini innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida rivojlantirish masalasi muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining o'quv motivatsiyasini innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlarini tahlil qilishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Pedagogik va psixologik manbalarda motivatsiya shaxs faoliyatini harakatga keltiruvchi ichki va tashqi omillar yig'indisi sifatida talqin qilinadi. A. Maslou motivatsiyani inson ehtiyojlari bilan bog'liq holda izohlab, shaxs faoliyati ehtiyojlarni qondirishga yo'naltirilishini ta'kidlaydi ^[1].

O'quv motivatsiyasi talabaning bilim olishga bo'lgan ichki ehtiyoji, o'quv faoliyatiga ongli munosabati va kasbiy rivojlanishga intilishini ifodalaydi. Tadqiqotchilar ichki motivatsiyani rivojlantirish ta'lim samaradorligini oshirishning muhim sharti ekanligini qayd etadilar ^[2].

Innovatsion pedagogik texnologiyalar ta'lim jarayonini zamonaviy yondashuvlar asosida tashkil etish, ta'lim oluvchilar faolligini oshirish va pedagogik faoliyat samaradorligini rivojlantirishga xizmat qiluvchi metod, vosita hamda texnologiyalar tizimi hisoblanadi. R. Ishmuhamedov, A. Abduqodirov va A. Pardayevlarning tadqiqotlarida interfaol metodlar, hamkorlikda o'qitish va muammoli ta'limning motivatsiyani rivojlantirishdagi ahamiyati yoritilgan ^[3].

Shuningdek, A. Abduqodirov o'z tadqiqotlarida raqamli texnologiyalar, multimedia vositalari va elektron platformalardan foydalanish talabalarning ta'limga bo'lgan qiziqishini oshirishini alohida ta'kidlaydi ^[4].

D. Detsi va R. Rayanning "Self-determination theory" nazariyasiga ko'ra, ichki motivatsiya insonning o'z qiziqishi va ehtiyoji asosida faoliyat olib borishini ifodalaydi ^[5]. Mazkur nazariyada avtonomiya, kompetentlik va ijtimoiy hamkorlik motivatsiyaning asosiy tarkibiy qismlari sifatida talqin etiladi. Ta'lim jarayonida aynan ichki motivatsiyani rivojlantirish o'quv samaradorligini oshirishning muhim omili hisoblanadi.

J. Dyui ta'lim jarayonida faoliyatga asoslangan yondashuvni ilgari surib, o'quvchilarning mustaqil fikrlashi va amaliy faoliyatini rivojlantirish zarurligini asoslagan ^[6]. Olimning fikricha, ta'lim jarayonida talabaning faol ishtiroki motivatsiyani rivojlantirishning muhim pedagogik sharti hisoblanadi.

V.P. Bespalko pedagogik texnologiyalar nazariyasida ta'lim jarayonini texnologik loyihalash orqali ta'lim samaradorligini oshirish mumkinligini asoslab bergan ^[7].

G.K. Selevko esa zamonaviy pedagogik texnologiyalarni interfaol, muammoli, rivojlantiruvchi va innovatsion texnologiyalar sifatida tasniflab, ularning o'quv motivatsiyasiga ijobiy ta'sirini ko'rsatib bergan ^[8].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining o'quv motivatsiyasini innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida rivojlantirish muammosini ilmiy-pedagogik jihatdan o'rganishga yo'naltirildi. Tadqiqot davomida nazariy, empirik va matematik-statistik metodlar majmuasidan foydalanildi.

Tadqiqotning nazariy bosqichida motivatsiya, o'quv motivatsiyasi, innovatsion pedagogik texnologiyalar, raqamli pedagogika va kasbiy kompetentlikka oid pedagogik, psixologik hamda metodik adabiyotlar tahlil qilindi. Xususan, A. Maslou, D. Detsi, R. Rayan, J. Dyui, V.P. Bespalko, G.K. Selevko kabi xorijiy olimlarning ilmiy qarashlari hamda R. Ishmuhamedov, A. Abduqodirov, O'. Tolipov, B. Xodjayev kabi o'zbekistonlik olimlarning pedagogik texnologiyalar bo'yicha ilmiy ishlari o'rganildi. Ilmiy manbalarni tahlil qilish jarayonida taqqoslash, umumlashtirish va tizimlashtirish metodlaridan foydalanildi.

Empirik bosqichda pedagogik kuzatuv, suhbat, anketa, diagnostik test va taqqoslama tahlil metodlari qo'llanildi. Tadqiqot jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining o'quv motivatsiyasi darajasini aniqlash maqsadida maxsus diagnostik materiallar ishlab chiqildi. Anketa va test savollari talabalarning ta'limga bo'lgan qiziqishi, mustaqil ishlash ko'nikmalari, kasbiy faolligi hamda innovatsion texnologiyalarga bo'lgan munosabatini aniqlashga yo'naltirildi.

Tadqiqot Xalqaro Nordik Universitetining Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalari ishtirokida amalga oshirildi. Tadqiqot jarayonida tajriba va nazorat guruhlarini shakllantirildi. Tajriba guruhida innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar olib borildi, nazorat guruhida esa an'anaviy ta'lim metodlari qo'llanildi.

Tajriba-sinov ishlari davomida interfaol metodlar, raqamli ta'lim platformalari va multimedia vositalaridan foydalanildi. Xususan, "Aqliy hujum", "Klaster", "Case-study", "FSMU", "Debat" kabi interfaol metodlar hamda Moodle, Google Classroom, Kahoot, Quizizz va Canva Education kabi raqamli platformalar pedagogik jarayonga integratsiya qilindi.



Tadqiqotning amaliy bosqichida talabalar uchun motivatsion xarakterga ega bo'lgan interfaol topshiriqlar, loyiha ishlari, muammoli vaziyatlar, elektron taqdimotlar va multimedia materiallari ishlab chiqildi. Ushbu didaktik vositalar talabalarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish, ijodiy faoliyatini rag'batlantirish hamda o'quv jarayonidagi faolligini oshirishga xizmat qildi.

Tajriba-sinov ishlari uch bosqichda amalga oshirildi: boshlang'ich diagnostika, shakllantiruvchi tajriba va yakuniy tahlil bosqichlari. Boshlang'ich bosqichda talabalar o'quv motivatsiyasining dastlabki holati aniqlandi. Shakllantiruvchi bosqichda innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida mashg'ulotlar tashkil etildi. Yakuniy bosqichda esa olingan natijalar taqqoslanib, innovatsion yondashuvlarning pedagogik samaradorligi tahlil qilindi.

Tadqiqot natijalarini qayta ishlashda matematik-statistik metodlardan foydalanildi. Olingan ma'lumotlar foiz ko'rsatkichlari asosida tahlil qilinib, tajriba va nazorat guruhlar natijalari o'zaro taqqoslandi. Statistik tahlil natijalari innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan mashg'ulotlarning bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining o'quv motivatsiyasini rivojlantirishda samarali ekanligini ko'rsatdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot davomida innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan ta'lim jarayonining bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining o'quv motivatsiyasiga ta'siri o'rganildi. Tajriba-sinov ishlari natijalari innovatsion yondashuvlarning pedagogik samaradorligini tasdiqladi.

Tadqiqotning boshlang'ich diagnostika bosqichida talabalarning o'quv motivatsiyasi darajasi tahlil qilindi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, talabalarning asosiy qismida o'quv faoliyatiga nisbatan tashqi motivatsiya ustunlik qilgan, mustaqil ishlash ko'nikmalari va ta'lim jarayonidagi faollik esa yetarli darajada shakllanmagan. Ayrim talabalar an'anaviy dars jarayonlarida passiv ishtirok etgani, ta'limga bo'lgan qiziqishning sustligi ham kuzatildi.

Shakllantiruvchi tajriba bosqichida innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida maxsus mashg'ulotlar tashkil etildi. Mashg'ulotlarda interfaol metodlar, muammoli vaziyatlar, loyiha asosida o'qitish, gamifikatsiya elementlari, multimedia vositalari hamda raqamli platformalardan foydalanildi. Ayniqsa, "Kahoot", "Quizizz", "Google Classroom" va "Canva Education" platformalari asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar talabalarning dars jarayonidagi faolligini oshirdi.

Interfaol metodlardan foydalanish natijasida talabalar o'z fikrini erkin ifodalash, jamoada ishlash va muammoli vaziyatlarni mustaqil hal qilish ko'nikmalariga ega bo'ldi. "Case-study" va "Debat" metodlari asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar esa talabalarning kreativ fikrlashi va kommunikativ kompetentligini rivojlantirdi.

Gamifikatsiya texnologiyalaridan foydalanish talabalarda sog'lom raqobat muhitini shakllantirdi. Ball to'plash, reyting tizimi, rag'batlantiruvchi topshiriqlar va interaktiv testlar talabalarning ichki motivatsiyasini kuchaytirishga xizmat qildi. Natijada talabalar mashg'ulotlarga faol qatnasha boshladi hamda mustaqil tayyor-garlik ko'rishga bo'lgan ehtiyoj kuchaydi.

Tadqiqot davomida tajriba va nazorat guruhlar natijalari o'zaro taqqoslandi. Tajriba guruhida innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan mashg'ulotlardan so'ng o'quv motivatsiyasi ko'rsatkichlari sezilarli darajada oshgani aniqlandi. Xususan, talabalarning ta'limga bo'lgan qiziqishi, mustaqil ishlash ko'nikmalari, kasbiy faolligi va darslardagi ishtiroki yuqori natijalarni ko'rsatdi.

Nazorat guruhida esa an'anaviy metodlar asosida olib borilgan mashg'ulotlarda motivatsion o'zgarishlar nisbatan past darajada kuzatildi. Bu esa innovatsion pedagogik texnologiyalarning o'quv motivatsiyasini rivojlantirishdagi samaradorligini yana bir bor tasdiqladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan ta'lim muhiti talabalarning bilim olishga bo'lgan ichki ehtiyojini kuchaytiradi, ularning o'quv faoliyatidagi faolligini oshiradi hamda kasbiy kompetentligini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, raqamli pedagogika vositalaridan foydalanish talabalarning mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini rivojlantirib, zamonaviy pedagogik faoliyatga tayyorlashda muhim omil ekanligi aniqlandi. Innovatsion yondashuvlar asosida shakllantirilgan motivatsion ta'lim muhiti bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy rivojlanishida samarali pedagogik mexanizm sifatida namoyon bo'ldi.

Mazkur tadqiqot natijalari innovatsion pedagogik texnologiyalar bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining o'quv motivatsiyasini rivojlantirishda muhim pedagogik vosita ekanligini ko'rsatdi. Olingan natijalar pedagogika va psixologiya fanlaridagi mavjud ilmiy qarashlar bilan uyg'unlikda ekanligi aniqlandi.

Tadqiqot davomida interfaol metodlar asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar talabalarning ta'lim jarayonidagi faolligini oshirishi, mustaqil fikrlashini rivojlantirishi va o'z fikrini erkin ifodalashiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi kuzatildi. Ushbu natijalar J. Dyui tomonidan ilgari surilgan faoliyatga asoslangan ta'lim konsepsiyasi bilan mos keladi. Olimning fikricha, ta'lim jarayonida o'quvchining faol ishtiroki bilimlarni samarali o'zlashtirishning muhim omili hisoblanadi.

Tadqiqot jarayonida qo'llanilgan gamifikatsiya texnologiyalari ham talabalarning ichki motivatsiyasini rivojlantirishda samarali vosita sifatida namoyon bo'ldi. Ball to'plash, reyting tizimi, interaktiv testlar va rag'batlantiruvchi topshiriqlar talabalarda sog'lom raqobat muhitini shakllantirdi. Natijada talabalar dars mashg'ulotlariga faolroq qatnasha boshladi hamda mustaqil tayyorgarlik ko'rishga bo'lgan ehtiyoj kuchaydi. Mazkur holat D. Detsi va R. Rayanning ichki motivatsiya nazariyasidagi avtonomiya va kompetentlik komponentlari bilan izohlanadi.

Raqamli pedagogika vositalaridan foydalanish ham tadqiqotning muhim natijalaridan biri bo'ldi. Moodle, Google Classroom, Kahoot, Quizizz va Canva Education platformalari asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar talabalarning ta'limga bo'lgan qiziqishini oshirdi hamda darslarning interaktivligini ta'minladi. Ayniqsa, multimedia vositalaridan foydalanish orqali murakkab mavzularni vizual tarzda tushuntirish imkoniyati yaratildi. Bu esa talabalarning mavzuni tezroq va samaraliroq o'zlashtirishiga xizmat qildi.

Tadqiqot natijalari R. Ishmuhamedov va A. Abduqodirovlarning innovatsion pedagogik texnologiyalar bo'yicha ilmiy qarashlarini ham tasdiqlaydi. Ularning fikricha, innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etilgan ta'lim muhiti o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, ijodiy faolligi va o'quv motivatsiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, tadqiqot davomida innovatsion pedagogik texnologiyalar talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishga ham ijobiy ta'sir ko'rsatishi aniqlandi. Interfaol metodlar va loyiha asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining pedagogik fikrlashi, kommunikativ kompetensiyasi va jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantirdi.

Biroq tadqiqot jarayonida ayrim cheklovlar ham kuzatildi. Birinchidan, barcha talabalar ham raqamli texnologiyalardan bir xil darajada foydalana olmadi. Ikkinchidan, ayrim hollarda internet tezligi va texnik vositalar yetishmasligi mashg'ulot samaradorligiga ta'sir ko'rsatdi. Uchinchidan, innovatsion pedagogik texnologiyalarni samarali qo'llash pedagogdan yuqori darajadagi metodik va raqamli kompetentlikni talab etdi. Shu bilan birga, tadqiqot natijalari innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida motivatsion ta'lim muhitini yaratish bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy rivojlanishida muhim omil ekanligini ko'rsatdi. Mazkur yondashuv talabalarning bilim olishga bo'lgan ichki ehtiyojini kuchaytirib, ularni zamonaviy pedagogik faoliyatga tayyorlashda samarali pedagogik mexanizm sifatida xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqot natijalari innovatsion pedagogik texnologiyalar bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining o'quv motivatsiyasini rivojlantirishda muhim pedagogik vosita ekanligini ko'rsatdi. Olingan natijalar pedagogika va psixologiya fanlaridagi mavjud ilmiy qarashlar bilan uyg'unlikda ekanligi aniqlandi.

Tadqiqot davomida interfaol metodlar asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar talabalarning ta'lim jarayonidagi faolligini oshirishi, mustaqil fikrlashini rivojlantirishi va o'z fikrini erkin ifodalashiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi kuzatildi. Ushbu natijalar J. Dyui tomonidan ilgari surilgan faoliyatga asoslangan ta'lim konsepsiyasi bilan mos keladi. Olimning fikricha, ta'lim jarayonida o'quvchining faol ishtiroki bilimlarni samarali o'zlashtirishning muhim omili hisoblanadi.

Tadqiqot jarayonida qo'llanilgan gamifikatsiya texnologiyalari ham talabalarning ichki motivatsiyasini rivojlantirishda samarali vosita sifatida namoyon bo'ldi. Ball to'plash, reyting tizimi, interaktiv testlar va rag'batlantiruvchi topshiriqlar talabalarda sog'lom raqobat muhitini shakllantirdi. Natijada talabalar dars mashg'ulotlariga faolroq qatnasha boshladi hamda mustaqil tayyorgarlik ko'rishga bo'lgan ehtiyoj kuchaydi. Mazkur holat D. Detsi va R. Rayanning ichki motivatsiya nazariyasidagi avtonomiya va kompetentlik komponentlari bilan izohlanadi.

Raqamli pedagogika vositalaridan foydalanish ham tadqiqotning muhim natijalaridan biri bo'ldi. Moodle, Google Classroom, Kahoot, Quizizz va Canva Education platformalari asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar talabalarning ta'limga bo'lgan qiziqishini oshirdi hamda darslarning interaktivligini ta'minladi. Ayniqsa, multimedia vositalaridan foydalanish orqali murakkab mavzularni vizual tarzda tushuntirish imkoniyati yaratildi. Bu esa talabalarning mavzuni tezroq va samaraliroq o'zlashtirishiga xizmat qildi.

Tadqiqot natijalari R. Ishmuhamedov va A. Abduqodirovlarning innovatsion pedagogik texnologiyalar bo'yicha ilmiy qarashlarini ham tasdiqlaydi. Ularning fikricha, innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etilgan ta'lim muhiti o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, ijodiy faolligi va o'quv motivatsiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, tadqiqot davomida innovatsion pedagogik texnologiyalar talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishga ham ijobiy ta'sir ko'rsatishi aniqlandi. Interfaol metodlar va loyiha asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining pedagogik fikrlashi, kommunikativ kompetensiyasi va jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantirdi.

Biroq tadqiqot jarayonida ayrim cheklovlar ham kuzatildi.

Birinchidan, barcha talabalar ham raqamli texnologiyalardan bir xil darajada foydalana olmadi.



Ikkinchidan, ayrim hollarda internet tezligi va texnik vositalar yetishmasligi mashg'ulot samaradorligiga ta'sir ko'rsatdi.

Uchinchidan, innovatsion pedagogik texnologiyalarni samarali qo'llash pedagogdan yuqori darajadagi metodik va raqamli kompetentlikni talab etdi.

Shu bilan birga, tadqiqot natijalari innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida motivatsion ta'lim muhitini yaratish bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy rivojlanishida muhim omil ekanligini ko'rsatdi. Mazkur yondashuv talabalarning bilim olishga bo'lgan ichki ehtiyojini kuchaytirib, ularni zamonaviy pedagogik faoliyatga tayyorlashda samarali pedagogik mexanizm sifatida xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Maslow A. Motivation and Personality. – New York: Harper & Row, 1954.
2. Deci E., Ryan R. Intrinsic Motivation and Self-Determination in Human Behavior. – New York: Plenum Press, 1985.
3. Dewey J. Experience and Education. – New York: Macmillan, 1938.
4. Vygotsky L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. – Harvard University Press, 1978.
5. Bandura A. Social Learning Theory. – Englewood Cliffs: Prentice Hall,
6. Беспалько В. П. Слагаемые педагогической технологии. – М.: Педагогика, 1989. – 192 с.
7. Селевко Г. К. Современные образовательные технологии. – М.: Народное образование, 1998. – 256 с.
8. Кларин М. В. Педагогическая технология в учебном процессе. – М.: Знание, 1989. – 80 с.
9. Bloom B.S. Taxonomy of Educational Objectives. – New York: Longman,
10. Goleman D. Emotional Intelligence: Why It Can Matter More Than IQ. – New York: Bantam Books, 1995.
11. Rogers C. Freedom to Learn. – Ohio: Merrill Publishing Company, 1969.
12. Bruner J. The Process of Education. – Cambridge: Harvard University Press, 1960.
13. UNESCO. Digital Education Transformation. – Paris: UNESCO Publishing, 2023.
14. OECD. Future of Education and Skills 2030. – Paris: OECD Publishing,
15. UNESCO. ICT Competency Framework for Teachers. - Paris: UNESCO.
16. Islamova F.Sh. Abduqunduzova. G.A. Uzluksiz ta'lim tizimida ma'naviy tarbiyani shakllantirish va rivojlantirishning dolzarb vazifalari. International Conference on Economics, Finance, Banking and Management, 2025/6/23. 140-146.
17. Fayazova, F. S. H., Otajonova, O. A., & Islamova, F. S. H. (2021). The role of art therapy in the formation of healthy living skills in adolescents.
18. Islomova, F., & Fayozova, F. (2021). Family traditions in vocational guidance, a guarantee of preparing young people for independent living. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(10), 34-38.
19. Sh, I. F., & Vaniyan, S. B. (2021). The Role Of Parents In Forming Spiritual Education On The Basis Of Creative Approaches. //Current Research Journal Of Pedagogics, 2(12), 162-165.
20. Islamova, Fotima. "Sun'iy intellekt davrida ta'lim va ijtimoiy fanlar: bilimdan kompetensiyaga o'tishning yangi modeli." Maktabgacha va maktab ta'limi jurnali, 2 Dec. 2025, doi:10.5281/zenodo.18103203.
21. Vokhidova, N. K., Khalikova, Z. M., Islamova, F. S., & Abdulkhayeva, M. B. (2024). Organization Of The Educational Process In Primary Education With The Participation Of Artificial Intelligence. Educational Administration: Theory and Practice, 30(4), 1906-1909.
22. Xabibullayevna, V. N., Mirakbarovna, F. D., Mirshadmanovna, X. Z., Shamsuddinovna, I. F., Saydullayevich, N. M. B. R., & Sayfutdinqizi, F. K. (2025). Application of game technologies in education: in the context of uzbekistan. Lex Localis: Journal of Local Self-Government, 23.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №6(4)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.